

SURXONDARYO VILOYATI XUDUDIDAGI IRRIGATSIYA TIZIMLARI VA ULARDAN QISHLOQ XO‘JALIGI MAQSADLARIDA FOYDALANISH

Choriev Abdiqayim Qodirovich - Termiz Davlat universiteti katta o‘qituvchisi.

Ochilova Gulasal Muzaffarovna Termiz Davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati hududidagi irrigatsiya tizimlari va ulardan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanish masalalari tahlil qilingan. Viloyatdagi asosiy kanal va suv omborlarining ahamiyati, sug‘orish tizimlarining hududiy joylashuvi hamda qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, suv resurslaridan samarali foydalanish, irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va suv tanqisligi sharoitida mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: irrigatsiya tizimlari, Surxondaryo viloyati, qishloq xo‘jaligi, suv resurslari, sug‘orish, kanal, suv ombori, melioratsiya, hosildorlik, infratuzilma.

ИРРИГАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ НА ТЕРРИТОРИИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ЦЕЛЯХ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА

Абдиқайим Кодирович Чориев – старший преподаватель кафедры
Географии Термезского государственного университета.

Гуласал Музаффаровна Очиллова – студентка Термезского государственного
университета.

Аннотация. В данной статье проанализированы ирригационные системы на территории Сурхандарьинской области и вопросы их использования в сельскохозяйственных целях. Освещены значение основных каналов и водохранилищ региона, территориальное размещение оросительных систем и их роль в обеспечении сельскохозяйственных угодий водой. Также рассмотрены вопросы эффективного использования водных ресурсов, модернизации ирригационной инфраструктуры и пути решения проблем дефицита воды.

Ключевые слова: ирригационные системы, Сурхандарьинская область, сельское хозяйство, водные ресурсы, орошение, канал, водохранилище, мелиорация, урожайность, инфраструктура.

IRRIGATION SYSTEMS IN THE TERRITORY OF SURKHANDARYA REGION AND THEIR USE FOR AGRICULTURAL PURPOSES

A.K. Choriev – Senior Lecturer, Department of Geography, Termez State University, Termez, Uzbekistan.

G.M. Ochilova – Student of Termez State University, Termez, Uzbekistan.

Abstract. This article analyzes the irrigation systems located in the territory of Surkhandarya region and their use for agricultural purposes. The importance of the main canals and reservoirs of the region, the territorial distribution of irrigation systems, and their role in supplying agricultural lands with water are highlighted. Issues of efficient water resource use, modernization of irrigation infrastructure, and solutions to water scarcity problems are also discussed.

Keywords: irrigation systems, Surkhandarya region, agriculture, water resources, irrigation, canal, reservoir, land reclamation, productivity, infrastructure.

Suv – bu ona tabiatning bizga in'om qilgan bebbaho resurslaridan biri bo'lib, biosfera va undagi tirik mavjudotlarning mavjudligini ta'minlovchi, organizmlarda moddalar almashinishi jarayondagi muhim komponentdir. Suv har doim va har vaqtda biosferaning muhim qismini tashkil etib, insonlar yashash muhitining ajralmas qismi bo'lib qoladi. atrof-muhitimizning mavjudligini ta'minlashda zaruriy vosita bo'lib, sayyoramizdagi butun tirik organizmlarni, eng avvalo, butun insoniyatni yashashi uchun sharoit yaratadi. Suvning sanoat va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati beqiyosdir. Uning maishiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur vosita ekanligi hech kimga sir emas. Suv inson organizmi, barcha o'simlik va hayvonlar tarkibini tashkil qiladi

Surxondaryo havzasini tirik bir organizm deb qarajak, uning tanasida oqayotgan qon Surxon vohasining suv resurslaridir. Bu suv manbalari orasida

Sangardak, Sherobod, To‘palang va Qoratog‘ daryolarining, hamda Janubiy Surxon, To‘palang, Uchqizil, Oqtepa, va Degrez suv omborlarining o‘rni beqiyosdir. Surxondaryo aholisi qadimdan daryo va soylar bo‘yida yashab, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelishgan.

Surxondaryo havzasidagi ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlashda va xalq xo‘jaligining barqaror rivojlanishida nasos stansiyalarining ham xizmati katta. Quyida eng katta nasos stansiyalarining miqdoriy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida statistik ma‘lumotlarni berib o‘tamiz(2-ilova).

1.Jayxun nasos stansiyasi. Bu stansiya sekundiga 92 kub metr suv chiqarib beradi va Surxondaryo vohasining 65000 getar ekin maydonini suv bilan ta‘minlaydi.

2.amu-Zang-1 nasos stansiyasi. Bu stansiya sekundiga 100 kub metr suv chiqarib beradi va vohaning 82000 getar ekin maydonini doimiy ravishda suv bilan ta‘minlab turadi.

3.amu-Zang-2 nasos stansiyasi. Mazkur stansiya sekundiga 112 kub metr suv chiqarib beradi va Surxon vohasining 81000 getar ekin maydonini suv bilan ta‘minlash qobiliyatiga ega.

4.Sherobod nasos stansiyasi. Bu stansiya eng katta kuchga ega bo‘lib sekundiga 120 kub metr suv chiqarib berish qobiliyatiga ega. uning chiqarib beradigan suvi vohaning 75111 gektar ekin maydonini suv bilan ta‘minlaydi. Shunday qilib yuqorida nomlari ta‘kidlab o‘tilgan 4 ta eng yirik stansiyalar Surxondaryo havzasi hududida jami 244,6 ming gektar ekin maydonini suv bilan ta‘minlaydi.

1-jadval

Surxondaryo havzasida barpo etilgan asosiy kanallar

T/r	Kanallar nomi	Qaysi daryo yoki suv omboridan suv oladi	Suv sig‘imi, m ³ /sek	Kanaldan suv ichadigan tumanlar
1	Zang	Janubiy Surxon va Oqtepa suv ombori	86	Jarqo‘rg‘on, angor, Muzrabod, Termiz
2	Hazarbog‘	To‘palangdaryo	110	Denov, Oltinsoy,

				Sho'rchi, Bandixon
3	Qumqo'rg'on	Surxondaryo	30	Sho'rchi, Qumqo'rg'on
4	Dayto'lak	Denov-Yurchi botqoqligi	8	Denov, Sho'rchi
5	Sherobod	Janubiy Surxon suv ombori	150	Bandixon, Qiziriq, Sherobod, Muzrabod
6	G'arbiy	Sherobod kanalidan	5	Qiziriq
7	Sharqiy Muzrabod	Sherobod kanalidan	4	Bandixon, Qiziriq, Muzrabod
8	amu-Zang	amudaryo	120	Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on
9	Bobotog'	amu-Zang kanalidan	30	Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on
10	Bandixon	Sherobod kanalidan	12	Bandixon
11	Zang-9	Janubiy Surxon suv ombori	25	Muzrabod
12	To'palang- Qoratog'	To'palangdaryo	25	Sariosiyo
13	Hayrobod	To'palangdaryo	10	Denov

Manba: Surxon irrigatsiya boshqarmsi ma'lumotlari asosida tuzildi.

ayrim taxminiy ma'lumotlarga qaraganda Zang kanali IX-X asrlarda qazilgan. Keyinchlik bu kanal tamoman buzilib ketgan. Hozirgi Zang magistral kanali deyarli qadimgi kanal o'rnida 1912-yilda qayta qazilgan. 1930-yillarda Surxondaryo havzasidagi angor-Talimoron cho'l massivlarini, 1950-yillarda Beshqo'ton va Muzrobod massivlarini o'zlashtirish munosabati bilan Zang magistral kanali yanada uzaytirildi va kengaytirildi. 1967-yilda Zang magistral kanalining bosh qismida Jarqo'rg'on gidrouzeli qurib ishga tushirildi.

2-jadval.

Surxondaryo viloyati suv omborlari va uarning asosiy ko'rsatkichlari.

№	Suv ombori	Ishga tushgan yili	Sug'orish maydoni, ga	Suv sig'imi, mln m ³	amaldagi suv sig'imi, mln m ³	To'g'on	
						Uzunligi, km	Balandligi, m

1	Janubiy Surxon	1967	150110	800	503	5,2	30
2	To‘palang	1986	61620	500	120	0,17	167
3	Uchqizil	1984	4950	160	160	4	11,5
4	Oqtepa	1982	24700	120	83	4,6	3
5	Degrez	1962	2200	12,8	12,8	3,5	12,7

Manba: Surxon irrigatsiya boshqarmsi ma’lumotlari asosida tuzildi.

Zang magistral kanali Surxondaryo havzasining janubiy qismidagi Jarqo‘rg‘on, Termiz, angor tumanlaridagi qishloq xo‘jalik ekin maydonlarini suv bilan ta’minlaydi. 60 ming gektardan ko‘proq yerlarni vegetatsiya davrida sug‘oradi. Shu bilan birga bu mintaqada joylashgan Uchqizil suv omborini ham suv bilan ta’minlaydi. 1972-yilda amu-Zang mashina kanali ishga tushirildi. Uning uzunligi 56 km, suv o‘tkazish quvvati 40 m³/sek ga teng. amu-Zang mashina kanali qurib bitkazilishi munosabati bilan Zang magistral kanali amudaryodan qo‘shimcha suv ola boshladi. Suvni tejash maqsadida kanalning 60 km uzunlikdagi qismi betonlashtirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. PF-6200-son. 07.04.2021. <http://lex.uz/docs/-5360449>

2.Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda - Toshkent: O‘qituvchi MU MCHJ, 2021. 184 b.

3.Allanov Q.A., Abdimo‘minov B.O “Global iqlim o‘zgarishi, uning oqibatlar va unga moslashish” Termiz, 2018

4.Nizomov A., Nugmanova A., Matnazarov A. “O‘zbekiston tog’ muzliklari” Toshkent, 2016

5.Umarova M.H. Surxondaryo geografiyasi.-Darslik. Surxonashr. 2024.